

ESHQOBIL SHUKURNI SHE'RLARINI TAHLILI

Marjona Ergasheva Qobilovna

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Eshqobil Shukurni she'rlarini tahlili, shoirning hayoti va ijod yo'li, va misol tariqasi she'rlaridan parchalar berilgan.*

Kalit So'zlar: *Naqshband, televideniye, Xayol, hijron, fikrbozlik.*

Аннотация: В данной статье в качестве примеров приводится анализ стихов Эшкабиля Шукурни, жизненного и творческого пути поэта, отрывки из его стихотворений.

Ключевые Слова: *Накшбанд, телевидение, воображение, эмиграция, идеология.*

Annotation: *This article provides an analysis of Eshkabil Shukurni's poems, the poet's life and creative path, and excerpts from his poems as examples.*

Key Words: *Naqshband, television, Imagination, emigration, ideology.*

KIRISH

Eshqobil Shukur 1962 yil Surxondaryo viloyatining Qumqo'rg'on tumanidagi Boymoqli qishlog'ida tug'ilgan. ToshDUNing filologiya fakul'tetini bitirgan (1984). Uzoq yillar O'zbekiston televideniyesi kanallarida ishlagan. Bugungi kunda "Ma'naviy hayot" jurnali bosh muharriridir.

Ilk she'rlar to'plami — «Yurakni o'rGANISH» (1984). Shundan so'ng uning «Sochlari sumbul-sumbul» (1988), «Tungi gullar» (1989), «Yashil qushlar» (1995), «Hamal ayvoni» (2003) she'riy kitoblari va 2005 yilda «Ko'hna bog' rivoyatlari» nasriy kitobi nashr etilgan. «Naqshband», «Ibtido xatosi» kabi dostonlari, «Nasoyim ul-muhabbatga sayr» turkumi, shuningdek, «Oqibat oqshomi», «Dunyoning ko'chishi» kabi qissalari ham bor.

ADABIYOTLAR VA METODOLOGIYA

Eshqobil Shukur shoirning she'rlari Oltin beshikning qo'ng'irog'iga o'xshaydi. Odamni birdan o'ziga jalb etadi. Uning "Kambag'alning shodligi" degan bir she'ri bor. Nihoyatda o'zbekona she'r. Lekin boshqalarda uchramaydigan she'r. Uning she'rlarida doimo balandlik bor. Biz yoshlар Eshqobil Shukur shoirning bir she'rini juda yaxshi ko'rib o'qib yuramiz. Bu she'r shunday:

Bir parcha non bo'lmas balki so'zimiz,

Valekin oshiqmiz, oshiqmiz.

Bir qultum suv bo'lmas balki ko'zimiz,

Valekin oshiqmiz, oshiqmiz.

Xayol va hijrondir nonu tuzimiz

Voh, bul kun oshiqmiz, oshiqmiz.

Netong ko'ngil bo'ldi rizqu ro'zimiz

Ertan ham oshiqmiz, oshiqmiz,
Yo'q bo'lib ketsak-da, tamom o'zimiz,
So'ng yana oshiqmiz, oshiqmiz.

Bu ehtimol Najmuddin Kubroning davomidir. Donishmand aytadi-ku, biz boshlovchi emas, davomchilarmiz deb. Bu tasavvuru tafakkurning va donishmandlikning davomidir.

NATIJALAR

Iqtidorli shoirimiz Eshqobil Shukur she'riyatini ko'p yillardan buyon o'qib, kuzatib kelaman. Har qanday yasamalikdan, har qanday fikrbozlikdan, har qanday soxta ohanglardan xoli bo'lgan bu she'riyatda dilkashlikni, samimiyatni, mehrni, kuyinchaklikni, teranlikni, go'zallikni uchratasiz.

SUHBAT

Oqarsuv bo'yida, oqshom chog'ida,
Qari tol boshida oy porlagan payt.
Ozurda tuyg'ular qo'nalghohida
Menga suv tilida sirlaringni ayt.
Ilkis tun sayriga shamol chaqirsa,
Shovqinli shaharni aylansang sekin.
Chor tarafda timmay sevinch baqirsa,
Sen sog'inch tilida bir narsa degin.
Ne kechar dunyoning o'ngu so'lida
Tuyg'ular ko'zyoshday qalqib turgan payt.
Hamma laqqillasa bozor tilida,
Sen ko'ngil tilida biror jumla ayt.
Qanday tushuntiray holimni senga,
Egik boshim uzra oyday yog'du soch...
Barini bir chetga qo'ygin-da, menga
Sukunat tilida yuragingni och.

Shoir bu sherida yor visoli u nilan suhbatlashish ilinjida bo'lgan, bir yigit haqida yozgan. “Qari tol boshida oy porlagan payt” bu vaqt bilan u o'z yorini uchrashuvga chaqirishga harakat qilyabdi.

“Sen ko'ngil tilida biror jumla ayt” bu jumlada shoir ikkalasining suhbatiga hech kim aralashishini xohlamayabdi.

She'r so'zi bo'lmaydi. Demoqchimanki, so'zlar orasida she'rga mo'ljallangan alohida so'zlar bo'lmaydi. Lekin chin shoirning qo'liga tushsa, hamma so'z she'r bo'ladi. Eshqobil juda xalqchil shoir.

Eshqobil Shukurning “Hamal avyon” kitobini varaqlab, bir xulosaga keldimki, Eshqobil taqlid qilmagan shoir. Uning “Nasoyim ul muhabbatga sayr” turkumi xalqimiz uchun yuksak ma'rifiy ruhdagi asarlardan deb hisoblayman.

Bugungi asl ma'nosini yo'qotib borayotgan dunyoda insoniylikni, ezgulikni shivirlagan she'r o't va olov sochayotgan bombalar-u to'plarga qarshi tura oladigan yagona insoniy

himoyadir. She'r hech kimga kerak emasdek tuyulgan bir paytda bu gapni aytish nechog'li asossiz tuyulmasin, men bu gapni qayta-qayta takrorlayman: ezzulikning junaydullosi – kichik qo'shini bo'l mish she'riyat tirik ekan, dunyo tirikdir. Hatto mavjudotning o'zi Yaratgan so'zidan va she'ridan paydo bo'lgan, degan o'yga boraman ba'zan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda Eshqobil Shukurning barcha she'rlari xalqqa tushunarliva yoqimli bo'ladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. «Kitob dunyosi» gazetasi
2. <https://kh-davron.uz/ijod/maqolalar/eshqobil-shukur-sheriyl-turkum.html>
3. “Adabiyotshunoslik nazariyasi”, A.Ulug'ov, G'.G'ulom NMIU, T – 2018
4. “Adabiyotshunoslik nazariyasi”, A.Ulug'ov, G'.G'ulom NMIU, T – 2018, 62-63-b